

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA O'QUV MOTIVATSIYASINI SHAKLLANTIRISH.

Sherova Latofat Hasanovna

Qashqadaryo viloyati Muborak tumani

26- umum òrta ta'lim maktabida Boshlang'ich sinf òqituvchisi

Annotatsiya: Yoshlarni erkin fikrlovchi, yangilikka intiluvchi va barkamol inson qilib tarbiyalash boshlang'ich sinflardan olib boriladi, bu jarayon muhim vazifalardan biridir. Shu sababdan ham ta'lim mazmuni tubdan yangilanib borilmoqda. Kichik maktab yoshi davrida bolada mustaqil ta'lim olish motivlari yuzaga kelib, ular eng oddiy shaklda — bilimlarni olish bilan birgalikda qo'shimcha manbalarga va turli mavzulardagi kitoblarni o'qishga qiziqishi bilan yuzaga keladi. Ijtimoiy motivlar birinchi sinfga kelgan bolaning differensial bo'lmagan, umumiy tushunishdan o'qish va o'rganishning zarurligi sabablarini anglashda, "o'zi uchun" o'qish mazmunini anglab yetishda ijtimoiy motivlarni amaliy xarakter kasb etishiga sababchi bo'ladi.

Kalit so'zlar: o'quvchi, boshlang'ich ta'lim, motiv, o'quv motivlari, tafakkur, xotira, intellekt, mantiq.

Boshlang'ich sinflarda yuqori bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish uchun o'quv-biluv faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar majmuasiga o'quvchilarning motivlari sohasini o'rganish masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" hamda O'zbekistonda ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirishga qaratilgan qator hujjatlarda ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, uni shaxsga - ta'lim jarayonining asosiy subyektlaridan biriga qaratish alohida ta'kidlab o'tiladi.

O'zbekiston mustaqillik bosqichlarini o'tayotgan shu kunlarda o'quvchilar tarbiyasi masalasi, tarbiyada xalq pedagogikasining tutgan o'rni dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zaro do'stlik munosabatlarini arbiyalash masalasida biz ko'proq Sharq mutafakkirlarining asarlariga tayanamiz va bizga asos vazifasini o'taydi. Qadim-qadimdan sharq mutafakkirlari ijodida ta'lim, tarbiya, o'zaro do'stlik, odob, axloq masalasi markaziy o'rinni egallab kelgan. Kaykovusning «Qobusnoma»sidan tortib, Al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning ko'plab asarlarida, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» («Baxt keltiruvchi bilim»), Ahmad Yugnakiyning «Hibbatul haqoyiq» («Haqiqat sovg'alari»), imom Ismoil al-Buxoriyning «Al-Adab AlMufrod» («Adab durdonalari») kabi jahonga mashhur asarlarida, Alisher Navoiyning o'lmas she'riyatida, Munis Xorazmiyning «Savodi ta'lim»ida, Xusayn Voiz Koshifiyning «Axloqi Muxsiniiy», «Ravzati

shaxodat» («Shahodat bog'ii») kabi asarlarida odob-axloq va o'zaro do'stlik masalalari keng yoritilgan.

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim barkamol shaxsni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega, chunki bu yoshdagi bolalar egallagan bilim va qadriyatlar uning keyingi hayotini belgilaydi. Ma'lumki, badiiy asarlarni o'qish bilan bog'liq holda shaxsni estetik tarbiyalash, ya'ni bilim berish, tarbiyalash va e'tiqodlarini shakllantirish; ya'ni maktabda o'qitiladigan predmetlar kabi bolalar adabiyoti namunalarini san'at asari sifatida o'rganish vazifalari o'qish darslariga yuklatiladi. Har bir fan o'zining o'rganish ob'ekti va predmetiga ega bo'lganidek, hozirgi kunda boshlang'ich sinflarda o'qish metodikasi adabiy ta'lim metodikasi sifatida ish ko'rishi lozimligi g'oyasi ilgari surilmoqda. Haqiqatan ham, adabiyot o'qitish sistematik kursiga tayyorlovchi predmet sifatida o'qish metodikasi bolalar adabiyoti namunalari asosida o'z maqsad va vazifalarini belgilaydi. Shundan kelib chiqqan holda boshlang'ich sinfdan o'qish darslarining o'rganish ob'ekti – o'quvchilarning adabiy ta'limni egallash jarayoni deb belgilanishi maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, motiv deganda o'quvchining o'z faoliyati predmetiga munosabatini ham tushunish mumkin. Motivlar ehtiyoj va qiziqishlar, intilish va hissiyotlar, tayanch tushuncha va ideallar shaklida amal qilishi mumkin. Shuning uchun ham motivlar juda murakkab tuzilma bo'lib, alternativlar, tanlov va qarorlar tahlil qilinadigan, baholanadigan dinamik tizimdir. Motivlashtirishni o'rganish didaktika va pedagogik psixologiyaning markaziy muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu borada muayyan yutuqlar qo'lga kiritilgan, ammo muammoning to'la yechimiga hali erishilgani yo'q. Motivlarning o'zgaruvchanligi, harakatchanligi, xilma-xilligi tufayli ularni muayyan tarkibiy tuzilmasini belgilash, boshqarishning aniq usul va vositalarini belgilash qiyin bo'lib hisoblanadi.

Keyingi yillarda o'zbek pedagog olimlari tomonidan ham o'quvchilar o'quv-biluv faoliyatini tadqiq etishga oid qator keng qamrovli didaktik tadqiqotlar olib borildi. Shunday ishlar qatoriga O.Roziqov, K.Zaripov, N.Ortiqov, B.Adizov, R.Safarova, R.Asadova, U.Musayev, H.Nazarova, G.Najmiddinova, A.Hamroyev kabi olimlarning izlanishlarini kiritish mumkin. Garchand, bu ishlarda o'quv-biluv faoliyatining turli qirralari yoritilgan bo'lsada, ularda o'quv-biluv faoliyatini motivlashtirishning ayrim masalalari bayon qilingan, xolos. Chunonchi, R.Safarova o'quvchilarning amaliy faoliyati til materiallarini o'zlashtirish ehtiyojiga ko'ra boshqarilishi zarurligi xususida fikr yuritgan. U o'quvchilarning qiziqishi, faolligi oshirilgan sari amaliy faoliyati ham rivojlana borishini ta'kidlagan. K.Zaripov esa o'qituvchilar malakasini oshirish tizimida o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish komponentlarini ajratib ko'rsatadi. N.Ortiqov o'quvchilar faoliyatida qiziqish, intilish, maqsad, ishonch kabi qator xarakterli xususiyatlarni ajratadi. Bular faoliyatning mahsuldorligi va yo'nalishini belgilaydi. O.Roziqov o'quv topshiriqlarida mazmun, maqsad, vazifa, usulni ularning invariantlari sifatida ajratgan.

Pedagog olimlar tomonidan olib borilgan qator didaktik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradigan o'qitish omillari ichida o'quv-biluv faoliyatiga motivlashtirish omili birinchi o'rinda turar ekan, ya'ni ta'lim samaradorligi 92% o'quv-biluv faoliyatini motivlashtirishga bog'liq ekan. Inson tabiatini ozgina bo'lsada tushunadigan kishi buning bejiz emasligini e'tirof etadi. Motivlar didaktik jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. O'quvchilarda uyushqoqliq, mas'uliyat asoslari, burch, adolat hissi, mehribonlik, insonparvarlik kurtaklari tarbiyalangan bo'lsa, do'stlik munosabatlari birinchi sinfdanoq ularning xush ko'rishlik, ijobiy, do'stona munosabatlari rivojlantirishga asoslanadi, bu o'quvchilarning xayrixohlik munosabatlari uchun nihoyatda muhimdir. Birgalikdagi rang-barang o'quv faoliyati har bir bolada o'zaro do'stlik munosabatlarini rivojlantirish va uchun hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Ta'lim-tarbiya jaranida o'zaro do'stlik munosabatlarining yu'aga kelishida sifat jihatidan siljish kuzatiladi. Bu o'qituvchining o'quvchilarga yuqori talablar qo'yishiga: dars paytida, topshiriqlarni bajarishda o'rtoqlari bilan aloqa bog'lash, tengdoshlari bilan birgalikda umumiy faoliyat uchun sharoit yaratish, boshqalarning qiziqishlari, istaklari bilan hisoblashish, yordam ko'rsatishga imkon beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilim olishning poydevori hisoblanar ekan, mazkur sinfdan boshlab, o'quvchilarda ijodiy faoliyatini rivojlantirishni taqozo etadi. Shunday ekan o'quvchilarning ijodkorli, ijodiy faoliyatini rivojlantirish lozimligi kun tartibdagi muammo bo'lib qoldi. Hozirgi kunda, 1-4-sinf o'quvchilariga ijodiy faoliyatini rivojlantirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiboriga olish, ta'limni samarali tashkil etishda darslarni noan'anaviy tarzda o'tkazish, darslarda innovatsion metodlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish, ularni har tomonlama yetuk bo'lishiga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. Shunday qilib boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy faoliyatini shakllantirishda, yuqorida aytib o'tilganidek ertak, hikoya, maqol, masal, she'r kabi asarlarni o'rgatishda, she'rni yodlatishdan oldin o'qituvchi mag'zini chaqib berishi, o'quvchilarda ushbu aytilayotgan ma'lumotlarni anglab yetishi, faraz qilishlari va hokozalar o'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalilova M., Ne'matova G. Takrorlash mashg'ulotlarini "Topqirlar bellashuvi" tarzida o'tkazish. Til va adabiyot ta'limi, 1994. 2-3-soni. 36-37- bet.
2. Matchonov S. va b. Boshlang'ich sinf o'qish darslarini ilg'or pedagogic texnologiyalar asosida tashkil etish. –T., Yangiyo'l poligraf serfis. 2008.
3. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 4 jild. –T.: Ma'naviyat. 2006.
4. A.Zunnunov. Adabiyot o'qitish metodikasi. –N.: "O'qituvchi", 1992.